



MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATI: GLOBALLASHUV DAVRIDA PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Muallif: Nadjimova Nigora Abdusolih qizi¹

Affiliatsiya: O'zbekiston davlat konservatoriysi o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14511866>

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashuv davrida milliy musiqa va san'atning milliy-iжtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish va yosh avlodga etkazishda musiqa ta'limi alohida rol o'ynaydi. Bu jarayonda yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida pedagogik kadrlarni tayyorlashdagi asosiy muammo va yechimlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lif, muammo, ilmiy salohiyati, qobiliyat, milliy qadriyat, pedagog, musiqiy ko'nikmalar, milliy madaniyat, an'anaviy qadriyatlar, raqamlı texnologiyalar.

Global mashhur jarayoni san'at sohasida ijobjiy va salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda. Bir tomonidan, milliy musiqiy merosni dunyo miqyosida tanitish imkoniyati kengaymoqda, ikkinchi tomonidan esa, an'anaviy qadriyatlar va ohanglarning yo'qolish xavfi mavjud. Shunday sharoitda pedagogik kadrlarning vazifasi nafaqat o'quvchilarga musiqiy ko'nikmalarni o'rgatish, balki milliy madaniyatga hurmat va mehr uyg'otishdan iboratdir.

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda bir necha muammolar mavjud. Bular:

1. Eskirgan ta'lif dasturlari: Ta'lif dasturlari ko'p hollarda globallashuv talablariga mos emas. An'anaviy musiqa va zamonaviy texnologiyalar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash uchun yetarli resurs va usullar mavjud emas.

2. Amaliy tajriba yetishmasligi: Kelajakdagi pedagoglarning amaliy tajribasini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarning yo'qligi, xalq musiqasiga oid bilimlarning yetarlicha o'rgatilmamasligi.

3. Raqobatbardosh ko'nikmalarning kamligi: Pedagoglar xalqaro darajadagi standartlarga mos keladigan bilim va ko'nikmalarga ega emas. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tajriba yetarli darajada rivojlantirilmagan.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar: Pedagoglarning ijtimoiy mavqeい va molivaviy rag'batlantirilishi yetarli emasligi, bu esa yoshlarni ushbu soha bo'yicha faoliyat olib borishga kamroq undamoqda.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha yechimlar:

1. Ta'lif dasturlarini modernizatsiya qilish: Milliy musiqa va xalq ijodiyotiga oid darslarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni ta'lif jarayoniga kiritish. Bu orqali an'anaviy va zamonaviy san'at uyg'unligini ta'minlash mumkin.

2. Amaliyot va tajriba almashinuvi: Talabalar va pedagoglar uchun xalq musiqasiga oid ijodiy loyihalar va tanlovlardan tashkil etish, xalqaro darajadagi musiqiy dasturlar bilan tanishtirish orqali tajriba almashish imkoniyatlarini oshirish.

3. Pedagogik malaka oshirish kurslari: Zamonaviy metodikalar, raqamli texnologiyalar va xalqaro musiqiy standartlar bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

4. Ijtimoiy rag'batlantirish: Pedagoglarning ijtimoiy mavqeini oshirish uchun maxsus mukofotlar joriy etish va ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Bu yosh mutaxassislarni ushbu sohada ishlashga undaydi.

O'zbek musiqiy pedagogikasi boy tarixiy merosga, rivojlangan an'analarga va milliy musiqiy uslublarga ega bo'lib, globallashuv jarayonida xalqaro hamkorlik uchun katta salohiyatni namoyon etmoqda. Xalqaro hamkorlik O'zbekiston musiqa ta'lmini yangi bosqichga olib chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa va san'atning rivoji globallashuv jarayonida o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, aksincha, yanada kuchliroq rivojlanadi. Buning uchun musiqa ta'limida malakali pedagogik kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali milliy san'atni saqlab qolish va kelajak avlodga etkazish yo'llidagi qadamlar mustahkamlanadi. Bu jarayon nafaqat musiqa ta'liming, balki umumiy madaniyatning rivojiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Panjiev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. T.: 2023.262 bet.

Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.